ПРОБЛЕМЫ ДОКАЗЫВАНИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ КРАЖИ, СОВЕРШАЕМЫХ В ЦИФРОВОЙ СФЕРЕ, ИДЕНТИФИКАЦИИ ЛИЧНОСТИ И СБОРА ЭЛЕКТРОННЫХ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ

Саидов Бобокул Ёрикулович,
студент магистратуры
Правоохранительной академии Республики Узбекистан

Аннотация. В статье проанализированы актуальные проблемы, возникающие при доказывании преступлений цифровой кражи, совершаемых с использованием информационно-коммуникационных технологий, идентификации личности преступника, а также в процессе сбора электронных доказательств. Обосновано, что такие особенности цифровых преступлений, как дистанционный характер совершения, анонимность и трансграничность, создают серьезные трудности в следственной и судебной практике. В ходе исследования установлено, что в национальном законодательстве недостаточно четко определены понятия, относящиеся к киберпреступности, отсутствует единообразный порядок сбора и оценки электронных доказательств, а также не сформирована единая судебная практика по данной категории дел. В статье обоснована необходимость устранения существующих проблем посредством совершенствования международно-правовых механизмов, национального законодательства и системы подготовки кадров. Наряду с этим с научной точки зрения раскрыта важность более широкого применения института соучастия при расследовании преступлений

цифровой кражи для обеспечения полной уголовно-правовой оценки действий всех участников преступной деятельности.

Ключевые слова: цифровая кража, электронные доказательства, идентификация личности, трансграничное преступление, анонимность, VPN, криптоактивы, дроп-карта, процесс доказывания

PROBLEMS IN PROOFING THE FURT CRIMINALS IN THE DIGITAL SECTOR, INDIVIDUAL IDENTIFICATION, AND COLLECTION OF ELECTRONIC EVIDENCES

Saidov Boboqul Yoriqulovich,

Master's Student Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *The article analyzes current problems arising in the process of proving digital theft crimes committed through information and communication technologies, identifying the perpetrator, and collecting electronic evidence. It is substantiated that the specific aspects of digital crimes – remoteness, anonymity, and cross-border nature – pose significant challenges in investigative and judicial practice. The study revealed that the concepts of cybercrime in national legislation are not sufficiently clear, the procedure for collecting and evaluating electronic evidence is not uniform, and a unified judicial practice has not been formed. The article substantiates the need to eliminate existing problems by improving international legal documents, national reforms, and the personnel training system. At the same time, the importance of providing a full legal assessment of all participants through the wide application of the institution of complicity in digital theft crimes is scientifically highlighted.*

Keywords: *digital theft, electronic evidence, identification, transnational crime, anonymity, VPN, crypto-assets, drop card, evidentiary process*

Kirish

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar, internet tarmoqlari, mobil ilovalar hamda elektron to'lov tizimlarining jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalarini qamrab olib, iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllarini vujudga keltirdi. Mazkur jarayon fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun keng imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan noqonuniy maqsadlarda foydalanish holatlarining ham keskin ortishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, mulkiy munosabatlarga qarshi qaratilgan jinoyatlar tobora raqamli muhitga ko'chib, an'anaviy o'g'rilik usullaridan farq qiluvchi yangi kriminal mexanizmlarni shakllantirmoqda.

Bugungi kunda bank plastik kartalari, elektron hamyonlar, mobil bank ilovalari, internet-banking xizmatlari, elektron tijorat platformalari hamda kripto-aktivlardan foydalanish orqali sodir etilayotgan o'g'rilik jinoyatlari jinoyatchilikning eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday jinoyatlar ko'pincha masofadan turib amalga oshirilishi, jinoyatchining shaxsini yashirish imkoniyatining yuqoriligi, VPN, proksi-serverlar, anonim messenjerlar va boshqa texnologik vositalardan foydalanilishi sababli ularni fosh etish an'anaviy tergov usullari bilan murakkablashmoqda. Bundan tashqari, jinoyat izlarining asosan elektron axborot shaklida mavjud bo'lishi ularni tezkor aniqlash, saqlash va protsessual tartibda rasmiylashtirishni alohida dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Asosiy qism

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) orqali sodir etilayotgan o'g'rilik jinoyatlari bevosita jismoniy mulkka ta'sir ko'rsatishga emas, balki hisob raqamlariga, identifikatorlarga, raqamli aktivlarga va to'lov vositalariga masofaviy kirish orqali amalga oshirilishi bilan tavsiflanmoqda (Zhalinsky, 2006).

Xalqaro miqyosdagi boshqa statistik ma'lumotlarda onlayn firibgarlik va shaxsiy ma'lumotlarning buzilishi bilan bog'liq holatlar juda keng tarqalgani aks ettiriladi (Wall, 2007, pp. 80–140). Masalan, ma'lumotlarga ko'ra, deyarli har 37 sekundda bir kiberxavf sodir bo'ladi va 2025-yili internet foydalanuvchilarining 1/5 qismi elektron pochta ma'lumotlari chiqib ketishi bilan zararlangan, bu onlayn o'g'rilik va identifikatsiya muammolariga to'g'ridan to'g'ri dalil bo'ladi. Shuningdek, ayrim davlatlardagi kiberjinoyatlar statistikasida ham shunday tendensiya kuzatilayotganini ko'rish mumkin.

Masalan, Singapurda 2018–2025-yillar davomida kiberjinoiyatlar soni keskin oshgan, 2025-yili 46 563 dan ortiq holat qayd etilgan va ular natijasida katta iqtisodiy zararlar ro'y bergan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etiladigan o'g'rilik jinoyatlarining o'ziga xosligi, avvalo, jinoiy harakatlarni amalga oshirish usullari va ularni yashirish mexanizmlarida namoyon bo'ladi. Raqamli muhitda jinoyatchi jinoyatni jabrlanuvchi bilan jismoniy aloqaga kirishmasdan, hatto boshqa davlat hududidan turib sodir etishi mumkin (Council of Europe, 2001, Articles 2–10, 14–21). Bu esa jinoyat sodir etilgan joyni aniqlash, hududiy yurisdiksiyani belgilash va javobgarlikni ta'minlash masalalarida jiddiy murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Raqamli muhitda mulkiy jinoyatlarni isbotlash va to'g'ri kvalifikatsiya qilish an'anaviy isbotlash modellari doirasiga to'liq sig'maydi. Bu holat, bir tomondan, kiberjinoiyatchilikka oid huquqiy atamalarining yagona ta'rifda mustahkamlanmagani, ikkinchi tomondan esa raqamli kriminalistikaga oid tergov tartib-taomillarining amaliyotda bir xil qo'llanmasligi bilan izohlanadi. Jumladan, A. Anorboev milliy qonunchilikda "kiberjinoiyat" va unga bog'liq atamalarining mazmunan noaniqligi huquqni qo'llashda turlicha talqinlarga sabab bo'lishini hamda kiberjinoiyat usullari ko'payib borayotgan sharoitda mazkur muammo yanada dolzarb tus olishini ta'kidlaydi (Anorboev, 2022, pp. 25–48).

Raqamli o'g'rilik va unga yaqin mulkiy tajovuz shakllarini kvalifikatsiya qilishdagi qiyinchiliklar mahalliy tadqiqotlarda bevosita "*normalar tarqoqligi*" va "*yagona sud-talqin mezonlarining yetishmasligi*" bilan bog'lanadi. Masalan, kompyuter vositalari orqali talon-toroj qilish holatlarini to'g'ri kvalifikatsiya qilishda amaldagi Jinoyat kodeksi normalarini qo'llashda qiyinchiliklar borligi, bu qiyinchiliklar esa ayrim belgilarning turli moddalarda tarqoq holda berilgani, axborot texnologiyalari sohasiga oid bob mavjudligiga qaramay masala to'liq hal etilmagani va eng muhimi, bu toifadagi ishlar bo'yicha Oliy Sud Plenumining alohida yo'riq beruvchi qarorlari mavjud emasligi bilan izohlangan (Nekrasov, et al., 2020, pp. 60–92). Bunday ilmiy yondashuvdan kelib chiqqanda, isbotlashda ham, kvalifikatsiyada ham "yagona standart" zarurati nazariy xulosa emas, balki amaliyotdagi barqarorlik sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Elektron hamyonlar, onlayn-banking tizimlari, kriptovalyuta platformalari orqali amalga oshiriladigan o'g'riliklarda jinoyat subyekti o'z shaxsini yashirish uchun turli texnik vositalardan foydalanadi. VPN, proksi serverlar, TOR tarmoqlari kabi texnologiyalar jinoyatchining haqiqiy joylashuvini va shaxsiy ma'lumotlarini aniqlashni ancha qiyinlashtiradi. S. Brenner (2019, p. 116) va D. Uoll o'z ilmiy ishlarida kiberjinoiyatlarning transchegaraviy va anonim xususiyati milliy jinoyat qonunchiligining samaradorligini pasaytirishini, bu esa *xalqaro hamkorlik va maxsus protsessual mexanizmlarni rivojlantirishni* taqozo etishini ta'kidlaydilar (Wall, 2007).

Raqamli o'g'rilik jinoyatlarini isbotlash jarayonida elektron dalillar markaziy o'rin tutadi. Biroq ularning o'ziga xos tabiati tergov uchun qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Elektron ma'lumotlar tez yo'qolib ketishi, avtomatik ravishda o'chirilishi yoki qayta yozilishi, shuningdek, osonlik bilan o'zgartirilishi mumkin. Masalan, server jurnallari, bank tranzaksiyalari, onlayn sessiyalar haqidagi ma'lumotlar ma'lum vaqt o'tgach saqlanmasligi mumkin. AQSH olimi O. Kerr (2023, p. 29) elektron dalillarning "*o'tkinchi xususiyati*"ni ta'kidlab, ularning o'z vaqtida mustahkamlab olinmasligi tergov uchun qaytarib bo'lmas salbiy oqibatlariga olib kelishini ko'rsatib o'tadi.

O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligida elektron dalillar haqida muayyan normalar mavjud bo'lsa-da, ularning protsessual maqomi, yig'ish, saqlash va baholash tartibi yetarlicha aniq va mukammal tarzda tartibga solinmagan. Sud amaliyotida elektron axborotning haqiqiylikini ta'minlash, ya'ni uning o'zgartirilmagan holda saqlanganini isbotlash masalasida turlicha yondashuvlar kuzatilmoqda. Ayrim hollarda sudlar elektron dalillarni ishonchsiz deb topib, ularni dalil sifatida qabul qilmaslik holatlari ham uchramoqda. Fikrimizcha, bu holat raqamli jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini pasaytirib, jinoyatchilar uchun javobgarlikdan qochish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlik bo'yicha xalqaro huquqiy hujjatlarga a'zo bo'lishi va ularni ratifikatsiya qilishi raqamli sohada sodir bo'layotgan o'g'rilik jinoyatlarini isbotlash, shaxsni

identifikatsiya qilish va elektron dalillarni to'plashdagi mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish uchun mustahkam huquqiy asos yaratadi.

Bunday normativ-huquqiy hujjatlarga quyidagilar kiradi:

Budapesht konvensiyasi (Kiberjinoyatlar to'g'risidagi konvensiya, 2001-yil) (Council of Europe, 2001). Kompyuter va internet orqali sodir etilgan jinoyatlarni jinoiy javobgarlikka tortish, elektron dalillarni saqlab qolish va davlatlar o'rtasida tezkor hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan universal xalqaro hujjat sifatida raqamli o'g'riliklarni fosh etishda muhim ahamiyat kasb etadi (Gustova, 2021, pp. 33–70).

BMT Bosh Assambleyasi huzuridagi Kiberxavfsizlik bo'yicha davlat ekspertlari guruhi (GGE) rezolyutsiyalari (United Nations General Assembly, 2021). Ushbu rezolyutsiyalar kibermakonda davlatlarning mas'uliyati, axborot almashish va jinoyatlarga qarshi hamkorlik normalarini belgilab, transchegaraviy raqamli jinoyatlarni tergov qilish uchun xalqaro huquqiy asos yaratadi.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasidagi kiberxavfsizlik kelishuvlari. A'zo davlatlar o'rtasida axborot almashish, serverlar va domenlarga oid ma'lumotlarni olish, shuningdek, jinoyatchilarni aniqlash bo'yicha hamkorlik mexanizmlarini kengaytiradi (Shanghai Cooperation Organization, 2009, pp. 10–30).

Yevropa Ittifoqining NIS2 direktivasi (European Parliament & Council, 2022) va *Cyber Resilience Act* (European Parliament & Council, 2024) *hujjatlari*. Muhim raqamli infratuzilmalar xavfsizligini ta'minlash, raqamli mahsulotlar va server xizmatlariga nisbatan majburiy axborot berish talablarini belgilash orqali elektron dalillarni olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlik sohasidagi mazkur xalqaro hujjatlarga a'zo bo'lishi va ularni ratifikatsiya qilishi, yirik saytlar, serverlar va xalqaro kompaniyalardan raqamli o'g'rilik jinoyatlarini fosh etish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni sud-tergov organlari tomonidan olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytiradi. Shu bilan birga, OSINT usullari, banklar, to'lov tizimlari, server va domen provayderlaridan olingan javoblarning tergov va sud jarayonida to'laqonli, maqbul elektron dalil sifatida baholanishini ta'minlash uchun mustahkam xalqaro huquqiy asos yaratiladi (Kerr, 2005, pp. 531–585).

Fikrimizcha, aynan xalqaro kiberxavfsizlik hujjatlariga qo'shilish va ularni milliy jinoyat-protsessual amaliyot bilan uyg'unlashtirish raqamli sohada sodir bo'layotgan o'g'rilik jinoyatlarini isbotlash, shaxsni identifikatsiya qilish va elektron dalillarni to'plashdagi mavjud tizimli muammolarni bartaraf etishning eng samarali yo'li hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-noyabrda qabul qilingan "Raqamli mahsulotlar (xizmatlar) iste'molchilari huquqlarini himoya qilish va raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralari to'g'risida"gi PQ-381-sonli qarori bilan mamlakatda raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish va raqamli mahsulotlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish tizimini kengaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tasdiqlandi, shu jumladan, raqamli jinoyatlar va ularni oldini olishga qaratilgan "yo'l xaritasi" ham joriy etildi (President of the Republic of Uzbekistan, 2023, paragraphs 3–10). Ushbu yo'l xaritasi raqamli jinoyatlar bilan bog'liq huquqbuzarliklarga qarshi kurashish tizimini modernizatsiya qilish, *frod* (shubhali) operatsiyalarning oldini olish, identifikatsiya tizimlarini takomillashtirish, kriptο-aktivlarni topshirish va saqlash tartibini aniqlash hamda elektron (raqamli) dalillar tushunchasi, to'plash, tekshirish va saqlash tartiblarini tartibga solishni nazarda tutgan bir qator vazifalarni nazarda tutadi.

Bu qaror elektron dalillar tushunchasi va ularni to'plash, tekshirish, ekspertiza qilish, saqlash tartiblarini, shuningdek, ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarini belgilashni nazarda tutuvchi norma loyihalarini ishlab chiqishni belgilaydi. Bu raqamli dalillar bilan ishlash bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan, tergov, prokuror va sud organlari uchun milliy huquqiy bazaga aniq yo'nalish beradi. Xususan, elektron dalillarning texnik jihatdan to'g'ri to'planishi, ularni qayd etish va himoya qilish mexanizmlarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi, bu esa raqamli dalillar bilan ishlash jarayonidagi muammolarni sezilarli darajada kamaytiradi. Amaliyotda

ushbu normalarning tatbiqi raqamli dalillar bilan ishlashda qonunchilik tomondan aniq standartlar o'rnatilishiga, ekspertlar ishtirokining oshishiga, dalillar xatoligining oldini olishga xizmat qiladi. Bu esa tergovchilarning raqamli dalillarni noto'g'ri to'plashi, yo'qotishi yoki to'ldirishi bilan bog'liq muammolarni kamaytirish imkonini beradi (Arkhiptsev, 2021, pp. 25–60).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvarda qabul qilingan "Raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish sohasi uchun professional kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-17-sonli qarori ko'p jihatdan mamlakatda raqamli texnologiyalar orqali sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish tizimini faqatgina qonunchilik jihatdan tartibga solish bilan cheklanmay, balki ushbu yo'nalishda kadrlar salohiyatini shakllantirish va kompleks tashkilotchilik choralari amalga oshirishni ham nazarda tutadi (President of the Republic of Uzbekistan, 2025). PQ-17-sonli qarori asosiy e'tiborni raqamli texnologiyalar vositasi bilan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishda faol ishtirok etadigan mutaxassislarni tayyorlashga qaratdi. Bu choralar raqamli dalillarni to'g'ri tushunish va huquqiy maqomini aniq baholashni ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi. Chunki raqamli dalillar texnik jihatdan murakkab bo'lib, ularni noto'g'ri to'plash, izohlash yoki qayta tiklash jinoyatni isbotlash jarayonini ishonchsizga aylantirishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, ushbu yo'nalishda maxsus tayyorlangan mutaxassislarning soni, malakasi oshishi raqamli dalillar bilan ishlashdagi noto'g'riliklar va ekspertning xato qilish ehtimolini kamaytiradi.

Raqamli muhitda plastik kartadagi pul mablag'larining axborot texnologiyalari yordamida yashirin ravishda talon-toroj qilinishi bilan bog'liq jinoyatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bunday jinoyatlar, qoida tariqasida, alohida shaxs emas, balki vazifalar o'zaro taqsimlangan jinoiy guruh tomonidan sodir etilmoqda. Amaliyotda jinoyat mexanizmida qurilmalarni klonlash uchun mo'ljallangan zararli dasturlarni ishlab chiquvchi shaxslar, ushbu viruslarni tarqatuvchilar, virus faollashgan qurilmalardan pul mablag'larini maxsus drop kartalarga yo'naltiruvchilar, drop kartalarni yig'uvchi va taqdim etuvchi shaxslar, shuningdek, o'zlashtirilgan mablag'larni kripto-aktivlar orqali "yuvuvchi" ishtirokchilarning mavjudligi kuzatilmoqda. Bu holat raqamli o'g'rilik jinoyatlarining murakkab, ko'p bosqichli va uyushgan xarakter kasb etganini ko'rsatadi. Biroq amalda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ayni paytda asosiy e'tibor drop karta yig'uvchilar va pullarni kripto-aktivlar orqali aylantiruvchi shaxslarni aniqlashga qaratilgan bo'lsa-da, ularning harakatlariga berilgan huquqiy baho cheklangan xarakterga ega (Babyrin & Sadchikov, 2022, pp. 101–140). Xususan, kripto-aktivlar bilan bog'liq holatlarda javobgarlik asosan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 278^b-moddasi doirasida ko'rib chiqilmoqda (Republic of Uzbekistan, 2023, Articles 169, 278^b). Shu bilan birga, drop karta yig'uvchilar, drop karta sotuvchilar hamda kripto-aktivlar orqali pullarni legallashtiruvchi shaxslarning aynan o'g'rilik jinoyatidagi ishtirokchilik roliga yetarli darajada huquqiy baho berilmay qolmoqda. Bu esa jinoyatning to'liq tarkibini ochish, barcha aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish va jabrlanuvchilarga yetkazilgan moddiy zararni qoplash masalalarida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani bilan izohlanadi.

Mazkur holat, fikrimizcha, raqamli o'g'rilik jinoyatlarida ishtirokchilik institutining yetarli darajada qo'llanmayotgani bilan bog'liq. Aslida drop karta yig'uvchilar, drop karta sotuvchilar hamda kripto-aktiv bilan shug'ullanayotgan shaxslarning harakatlari jinoyatning asosiy natijasi – ya'ni mulkiy qiymatni yashirin ravishda o'zlashtirishga bevosita xizmat qiladi. Shu bois yuqoridagi kabi holatlarda mazkur shaxslarning o'g'rilik jinoyatidagi ishtiroki dalillar bilan tasdiqlangan taqdirda ularni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 169-moddasi uchinchi va to'rtinchi qismlari bo'yicha, ya'ni uyushgan guruh tarkibida yoki juda ko'p miqdorda sodir etilgan o'g'rilikda ishtirokchilikda jinoiy javobgarlikka tortish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu yondashuv raqamli o'g'rilik jinoyatlarini faqat "texnik ijrochi" yoki "pulni yuvuvchi" darajasida emas, balki yagona jinoiy mexanizmning barcha ishtirokchilarini qamrab olgan holda huquqiy baholash imkonini beradi (Directive 2013/40/EU, 2013).

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, drop karta yig'uvchilar, drop karta sotuvchilar va kripto-aktiv bilan shug'ullanayotgan shaxslarning harakatlariga keskin va adolatli jinoiy javobgarlik belgilash mazkur

turdagi jinoyatlarning ko'proq fosh etilishiga, uyushgan jinoiy guruhlar faoliyatining parchalanishiga hamda jabrlanuvchilarga yetkazilgan moddiy zararlarni qoplash darajasining oshishiga xizmat qiladi. Shu tariqa ishtirokchilik institutining to'laqonli qo'llanishi raqamli sohada sodir etilayotgan o'g'rilik jinoyatlariga qarshi kurashish samaradorligini oshirishning muhim huquqiy vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, raqamlashuv sharoitida mulkiy jinoyatlar, ayniqsa, AKT orqali sodir etiladigan o'g'rilikning mazmunan o'zgargani, unda raqamli o'g'rilikning an'anaviy o'g'rilikdan farqli jihatlari – masofaviylik, anonimlik va transchegaraviylik tufayli jinoyat sodir etilgan joyni belgilash, yurisdiksiyani aniqlash hamda shaxsni identifikatsiya qilish qiyinlashayotgani hozirgi kunda prokuratura organlari va ichki ishlar organlari oldida turgan asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

REFERENCES

- Anorboev, A. U. (2022). *The concept of cybercrimes and problems of their legal interpretation* (pp. 25–48). TSUL Publishing House.
- Arkhiptsev, I. N. (2021). *Cybercrime and digital forensics* (pp. 25–60). INFRA-M.
- Baybarin, A. A., & Sadchikov, D. N. (2022). *Problems of qualification of crimes in the sphere of non-cash payments* (pp. 101–140). Prospekt.
- Baybarin, A. A. (2019). *Non-cash and electronic funds as a subject of theft* (pp. 45–78). Yuridicheskaya Literatura.
- Brenner, S. (2019). *Cybercrime: Criminal threats from cyberspace* (p. 116). Oxford University Press.
- Council of Europe. (2001). *Convention on cybercrime (Budapest Convention)* (Articles 2–10, 14–21). Strasbourg.
- Directive 2013/40/EU of the European Parliament and of the Council on attacks against information systems. (2013). *Official Journal of the European Union*.
- European Parliament and Council of the European Union. (2022). *Directive (EU) 2022/2555 on measures for a high common level of cybersecurity across the Union (NIS 2 Directive)*. European Commission Digital Strategy. <https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/policies/nis2-directive>
- European Parliament and Council of the European Union. (2024). *Regulation (EU) 2024/2847 of the European Parliament and of the Council of 10 October 2024 on horizontal cybersecurity requirements for products with digital elements (Cyber Resilience Act)*. Official Journal of the European Union, L 2024/2847.
- Gustova, E. V. (2021). *Qualification of cybercrimes and computer fraud* (pp. 33–70). Norma.
- Kerr, O. (2023). Digital evidence and the new criminal procedure. *Columbia Law Review*, 123, 29.
- Kerr, O. S. (2005). Searches and seizures in a digital world. *Harvard Law Review*, 119, 531–585.
- Nekrasov, D. E., Bryukhnov, A. A., & Napkhanenko, I. P. (2020). *Electronic funds as a subject of crime* (pp. 60–92). Yuridicheskii Tsentri Press.
- President of the Republic of Uzbekistan. (2023). *Resolution "On measures to strengthen consumer rights protection in the field of digital products (services) and to combat offenses committed through digital technologies"* (No. RP-381). Lex.uz. <https://lex.uz/ru/docs/6681111>
- President of the Republic of Uzbekistan. (2025). *Resoluton "On measures to introduce a system for training professional personnel in the field of combating crimes committed through digital technologies"*. (No. RP-17). Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/7339006>
- Republic of Uzbekistan. (2023). *Criminal Code of the Republic of Uzbekistan*. Adolat Publishing House.
- Shanghai Cooperation Organization. (2009). *Agreement on cooperation in the field of international information security* (pp. 10–30). SCO Secretariat.
- United Nations General Assembly. (2021). *Group of Governmental Experts on Advancing Responsible State Behavior in Cyberspace in the Context of International Security* (Official Resolution/Report). United Nations.
- Wall, D. S. (2007). *Cybercrime: The transformation of crime in the information age* (pp. 80–140). Polity Press.
- Zhalinsky, A. E. (2006). *Sovremennoye nemetskoe ugolovnoe pravo [Modern German criminal law]*. Prospekt.

**O‘ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL
2026-YIL 2-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД № 2

**UZBEKISTAN
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 ISSUE 2

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.2.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.